

## MA’NAVIY-MA’RIFIY FAOLIYAT, UNING MOHIYATI, MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI

*Andijon “Sayyid Muhyiddin maxdum” o'rta maxsus  
islom ta'lif muassasasi o'quv ishlari bo'yicha mudir  
o'rindbosari, Turon Universiteti 1-kurs magistranti  
Israilov Qahramonjon Mashrabovich*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning mohiyati, mazmuni va tarkibiy tuzilishi o'rganiladi. Maqolada axloqiy va intellektual rivojlanishning ahamiyati, shaxsning dunyoqarashini shakllantirishda ta'lifning roli va talabalarning shaxsiy o'sishiga turli bilim tizimlarining integratsiyasi masalalari yoritiladi. Bunday faoliyatlar jamiyatning qadriyatlarini shakllantirishga qanday ta'sir ko'rsatishi, insonparvarlik, axloqiy xulq-atvor va ta'lif jarayonlarida tanqidiy fikrlashning o'rni haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy faoliyat, ma'rifiy faoliyat, axloqiy rivojlanish, intellektual rivojlanish, dunyoqarash, insonparvarlik, tanqidiy fikrlash, ta'lif, qadriyatlar, shaxsiy o'sish.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются сущность, содержание и структурные компоненты духовно-образовательной деятельности. Особое внимание уделено важности нравственного и интеллектуального развития, роли образования в формировании мировоззрения личности и интеграции различных систем знаний для личностного роста студентов. Описано, как такие виды деятельности способствуют формированию общественных ценностей, подчеркивается значение гуманизма, этического поведения и критического мышления в образовательных процессах.

**Ключевые слова:** духовная деятельность, образовательная деятельность, нравственное развитие, интеллектуальное развитие, мировоззрение, гуманизм, критическое мышление, образование, ценности, личностный рост.

**Abstract.** This article explores the essence, content, and structural components of spiritual and educational activities. It emphasizes the importance of moral and intellectual development, the role of education in shaping individuals' worldview, and the integration of various knowledge systems for the personal growth of students. The article discusses how such activities contribute to the formation of societal values, highlighting the key principles of humanism, ethical conduct, and the importance of critical thinking in educational processes.

**Key words:** spiritual activity, educational activity, moral development, intellectual development, worldview, humanism, critical thinking, education, values, personal growth.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2018 yil 14 avgustdagagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari” to‘g‘risida PQ-3907-son<sup>1</sup> Qarorida milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda xushyorlik, ma’naviy mas’uliyat tuyg‘usining to‘g‘ri shakllanganligi, voqelikka qadriyatli munosabatni to‘g‘ri vujudga keltirishda tarbiyachi-pedagog, ustoz-murabbiyning kasbiy tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga aksilogik munosabatni rivojlantirishni yuqoridagi fikrning amaliy ijrosi sifatida qarash mumkin bo‘ladi.

Dunyodagi eng oliy qadriyat sifatida inson turar ekan, ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadini ham mazkur qadriyat belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida<sup>2</sup> “...inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa dahlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi“ deb belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi<sup>3</sup> Qonunning 4-moddasida ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi asosiy prinsiplar sifatida belgilab o‘tilgan. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida “Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash”<sup>4</sup> kabi ustuvor maqsad belgilangan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga aksilogik munosabatlarni rivojlantirish ta’lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida dolzarbligi va muhimligi, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini qondirishda, ta’lim tizimini barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim jarayon hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarorida belgilangan Konsepsiyanı amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri – aholining farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma’naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o‘tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borishdir. Konsepsiyaning maqsadi –

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 августадаги “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-3907-сон Қарори. Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 15.08.2018 й., 07/18/3907/1706-сон; 14.12.2019 й., 06/19/5894/4161-сон.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2018. – Б. 80.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ти Қонуни. 2020 йил 23 сентябрь, ЎРҚ-637-сон. Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й. 03/20/637/1313-сон.

<sup>4</sup> <sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармони / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.

yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiba mos, bosqichma-bosqich shakllantirish iborat. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Homiladorlik davridan boshlanadigan va 30 yoshga to'lguniga qadar davom ettiriladigan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-onalar, tarbiyachilar, o'qituvchilar va mahallaning rolini oshirish nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi bilan birgalikda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi" loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiya: ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlari; bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish shakllari; ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, ta'lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlikni o'rnatish mexanizmlari; tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borishni nazarda tutuvchi uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi; ma'naviy tarbiyani shakllantirishning homiladorlik davridan boshlanishi va tarbiyaning har bir bosqichdagi o'ziga xos xususiyatlari; ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishini belgilab beradi. Shuningdek, mazkur Qaror bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi bilan birgalikda "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitning holatini aniqlash va manzilli sog'lomashtirish metodikasi" loyihasini ishlab chiqildi.

Ma'naviyat va ma'rifat Markazi huzurida "Ma'naviyat targ'ibotchisi" ta'lim muassasasi tashkil etildi. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi qoshida "Madaniyat va ma'rifat" telekanali tashkil etilishi ham sohaning hozirgi axborot asrida katta ahamiyatli deb qaraladi. Shuningdek, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Xalqaro press-klub va boshqa ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan maqolalar, tok-shouular, ijtimoiy roliklar, ko'rsatuvlar, publitsistik chiqishlar va eshittirishlar tashkil qilinib kelimoqda. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishdagi, yuksak ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishdagi samarali mehnati va ibratli faoliyati uchun davlat organlari va tashkilotlar xodimlariga "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni ta'sis etildi. Markaz huzurida "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyatni nodavlat notijorat tashkiloti

shaklida ta'sis etildi.<sup>5</sup>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021 yil 3 iyunda “Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 340-sun qaror qabul qilindi. Ijtimoiy-madaniy tadqiqotlar instituti ma'naviy-ma'rifiy ishlar holati, milliy g‘oyaning mamlakat taraqqiyotidagi o‘rni, jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir etuvchi tahdidlar va ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy-amaliy izlanishlar olib boradi. Shuningdek, institut: mamlakatdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit holatini tadqiq qilish, baholash va yaxshilash bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar tayyorlaydi; ma'naviy-ma'rifiy targ‘ibot ishlarini amalga oshirishning samarali va ta'sirchan zamonaviy targ‘ibot texnologiya hamda usullarini ishlab chiqadi; aholining g‘oyaviy va axborot hurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazadi. Hozirgi globallashuv davrida internet tarmog‘idan unumli foydalanish madaniyati muhim vazifalardan biridir. Institut faoliyati ham ushbu masalani o‘z ichiga oladi. Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi barcha muammolar: el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish ham mazkur qaror asosida institutning vazifalari sifatida belgilab o‘tilgan. Mazkur institut “Ma'naviyat targ‘ibotchisi” ta’lim muassasasining huquqiy vorisi bo‘lib, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi qoshida faoliyat ko‘rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.04.2017 yil 2909-son<sup>6</sup> “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarorida ta’lim muassasalaridagi dars jarayonlarini ilg‘or, ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan zamonaviy uslubiyot bilan ta’minalash yuzasidan chora-tadbirlab belgilab berilgan.

Ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid qonun, me'yoriy hujjatlar tahlili asosida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning hozirgi davrdagi ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

- jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;
- oila, maktabgacha ta’lim tashkiloti, maktab, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, barcha ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyiligi hamda uzlusizligini ta’minalash;
- g‘oyaviy va axborot hurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 марта “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5040-сон Қарори / Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.03.2021 й., 07/21/5040/0243-сон.

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-2909-сон Қарори / Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 18-сон, 313-модда, 19-сон, 335-модда, 24-сон, 490-модда, 37-сон, 982-модда; Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.06.2020 й., 06/20/5370/0975-сон, 09.07.2020 й., 06/20/6021/1047-сон, 28.09.2020 й., 06/20/6075/1330-сон.

kuchaytirish, axborot tarmoqlaridan foydalanish madaniyatini rivojlantirish;

- global dunyodagi geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish;
- terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish, o‘z shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish;
- el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish va boshq.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga doir ilmiy tadqiqotlar respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan olib boriladi. Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-ijtimoiy mavzulardagi dolzarb maqolalar, jamoatchilik vakillarining ilg‘or fikrlari, mafkuraviy jarayonlar tahlili, sohaga oid yangiliklarni to‘plash, tayyorlash va tarqatish maqsadida “oyina.uz“ elektron portali tashkil etildi. Davlat oliy ta’lim muassasalari va ularning filiallarida, talabalar sonidan qat’i nazar, yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor (direktor o‘rinbosari) lavozimi joriy etildi. Barcha tuman va shaharlarda “Ma’naviyat va ma’rifat maskani” tashkil etildi. 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim tizimining tegishli ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalariga bakalavriat bosqichida – “Ma’naviyatshunoslik” fani; magistratura bosqichida – “Kasbiy ma’naviyat” fani kiritildi, magistratura bosqichida “PR-menejer” mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlanishi yo‘lga qo‘yiladi.

Oliy ta’limning asosiy vazifalari qatoriga Davlat ta’lim standartiga muvofiq zamonaviy dasturlar asosida o‘qitishning sifatini ta’minalash, oliy malakali ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bilan bir qatorda oliy ta’limning insonparvarligini ta’minalash maqsadida yoshlar tarbiyasiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish kiradi. Oliy ta’lim muassasalarida, ayniqsa pedagogika yo‘nalishlarida yuqori malakali o‘qituvchilar tayyorlashda, talabalarning shaxsiy rivojlanganligi, ularda yuksak insoniy fazilatlar va kasbiy professionallik rivojlanganligi ularning mehnat bozorida raqobatbardoshlilagini ta’minalaydi.

Oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. 2020 yil 19 may kuni “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Undagi eng muhim o‘zgarishlar sifatida ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi prinsipi kiritilgan. Pedagogik oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejasiga kiritilgan “Umumiy pedagogika”, “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq fanlarini o‘qitish metodikasi”, “Milliy g‘oya targ‘iboti va texnologiyalari” hamda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘qitilishi bo‘lajak pedagoglar va talabalarning ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishlarini tashkil etishga

tayyorlashda katta imkoniyatlar mavjud.

Yuqoridagi ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga doir Qonun hujjatlari, oliy ta’lim muassasalariga oid me’yoriy hujjatlari tahlili ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlash nuqtai nazaridan muhimligini qayd etgan holda, tadqiqotimiz doirasida “ma’naviyat”, “ma’rifat” va bu ikki tushuncha bog‘liqligidagi “ma’naviy-ma’rifiy faoliyat” tushunchalarini tadqiq qilishni taqozo etadi. Har qanday jamiyat, tuzum barqaror rivojlanishga intilibgina qolmasdan, o‘zining tabiatiga, mohiyatiga mos shaxsni voyaga yetkazishga ham muhim e’tibor beradi. Uning axloqiy, huquqiy, estetik me’yorlari, ijtimoiy institutlarining faoliyati shu maqsadga bo‘ysundiriladi.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat O‘zbekiston Respublikasining hozirgi globallashuv davrida dunyodagi mavqeini belgilab beruvchi faoliyat hisoblanadi. Dunyodagi ko‘plab pedagogik, sotsiologik tadqiqotlar inson ma’naviyati va ma’rifiy kamol topishida, ularda qadriyatlarga bo‘lgan munosabatlarning shakllanishiga avvalgiga nisbatan ko‘proq ehtiyoj borligini, buning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchilarda global iqtisodiy o‘zgarishlar davrida “qadriyatlarni hurmat qilishga mo‘ljallangan ta’lim”, “aksiologik munosabatlarni rivojlantirish”, “qadriyatga asoslangan boshqaruv” kabi tushunchalar pedagogik amaliyot va tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanib, ijtimoy-gumanitar fanlar o‘qitilishining ahamiyati ortib bormoqda.

Globallashuv jarayonlari O‘zbekiston fuqarolarining butun dunyoda ilm o‘rganishi, mehnat faoliyatini ko‘rsatish, sayohat qilish qamrovini oshirib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida ta’lim tizimining ta’lim oluvchilar ongiga qadriyatlar tizimini qay darajada singdira olganligi va ularning keyingi hayotini qay darajada rejalashtira olishi, bunda umumbashariy va milliy qadriyatlarga qay darajada e’ribor qaratish ko‘nikmasi shakllanganligini ta’lim tizimining natijasi sifatida qarash mumkin bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2018. – B. 80.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr, O‘RQ-637-son. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y. 03/20/637/1313-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustadagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3907-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,

- 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-son; 14.12.2019 y., 06/19/5894/4161-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son Qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079-son; 17.03.2021 y., 06/21/6188/0216-son, 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son.
  6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 sentyabrdagi “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4436-son Qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.09.2019 y., 07/19/4436/3693-son; 17.03.2021 y., 06/21/6188/0216-son; 22.04.2021 y., 06/21/6212/0358-son.
  7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son Qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son.
  8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.
  9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 17 sentyabrdagi “Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 736-son Qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.09.2018 y., 09/18/736/1886-son; 19.06.2020 y., 09/20/391/0777-son.
  10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020 y., 09/20/391/0777-son.
  11. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016. 14-bet.
  12. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b.
  13. Abu Rayhon Beruniy. Tarayhalar (Javohirot kitobidan). –T.: Meros, 1991. – 47 b.
  14. Abdurauf Fitrat. Najot yo‘li. – T.: Ma’naviyat, 2003. – 256 b.
  15. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – T.: Cho‘lpon, 1994. – 182 b.
  16. Abdulla Qodiriy. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2014. – 880 b.
  17. Abdullaev M va boshq. Ma’naviyat. – Farg‘ona, 1999. – B. 22.
  18. Abdullaev M., Umarov E., Ochildev A., Yo‘ldoshev A., Abdullaev A. Madaniyatshunoslik asoslari. –T.: Turon-Iqbol, 2006. – B. 24.

19. Abduraxmonova X.R. Yoshlarning ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashini shakllantirishda ommaviy madaniyatning salbiy ta'siri. “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish omillari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand, 2018. – B. 15.
20. Abdullaeva B.S Oliy ta’lim tizimida zamonaviy ta’lim texnologiyalari va pedagogning innovatsion faoliyati. “Zamonaviy uzlucksiz ta’lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T.: TDPU, 2018 yil 27 aprel. – B. 13.
21. Azimova Z. Tarbiyaviy ishlar tizimini integral diagnostik asosda takomillashtirish (oliy ta’lim muassasalari misolida): ped. fanlari dokt. diss. – Nukus, 2019. – 208 b.
22. Akramova F.A., Lutfullaeva N.X., Xaydarova X.R. “Pedagogik psixologiya” fani (ma’ruzalar matni). – T.: TDIU, 2005. – B. 10.
23. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 9-jild. –T.: Sharq, 2010. – 500 b.
24. Ananев B.G. Chelovek kak predmet poznaniya. – L.: LGU, 1999. – 154 s. (162).
25. Astashova N.A. Aksiologicheskoe obrazovanie sovremennoego uchitelya: metodologiya, konsepsiya, modeli i texnologii razvitiya. – Moskva, 2001. – 123 s. (498)